

## **9-dars. KLAVIATURA TRENAYJORLARI VA “YUMUQ KO’ZLAR USULIDA MATN TERISH”**

Matnni tez va xatosiz yozish yozuv ixtiro qilingan davrdan boshlab barcha zamonlarda savodxonlik muammosi bo’lib kelgan. Kompyuterlar davriga kelib esa bunga bo’lgan talab yanada kuchaydi. Mashqlarni mustaqil bajarish maqsadida ko’plab kompyuter dasturlari yaratilgan. Ular **klaviatura trenajyorlari** deb ataladi.

Quyida klaviatura trenajyorlari bilan tanishib chiqamiz:

### **1. To’liq bepul trenajyor dasturlari:**

- Klavtren, StarBoom;
- Ak, Stamina;
- My simula.

### **2. Windows uchun sinovdan o’tgan dasturlar:**

- Typing Master;
- Соло на клавиатуре.


### **3. OnLine trenajyorlar va musobaqalar:**

- <https://solo.nabiraem.ru> -
- <http://urikor.net> – kirill alifbosi bo'yicha championat
- <http://typingzone.com>
- <http://klava.org/>
- <http://typeracer.com> – ingliz tilida yozish
- <http://typeracer.com> – ingliz tili bo'yicha onlayn musobaqa
- (<http://klavogonki.ru>) – matn terish bo'yicha onlayn musobaqa



### **“Yumuq ko’zlar” yoki “Tezkor terish” darajasiga qanday erishish mumkin?**

Tez harf terishni o’rganish uchun maxsus trenajyorlardan boshqa ham ko’plab usullar mavjud. Bunday usullardan biri **“Yumuq ko’zlar”** holatida klaviaturada ishlashdir. Bu usul **“10 ta barmoq”** usuli deb ham yuritiladi va u foydalanuvchidan sabr va mashaqqatli mehnatni talab etadi. Bu usulda klaviaturaga nazar solmasdan barmoqlarni ishlatishni, ko’zlar esa faqat monitordagi matnni kuzatib borishni tushunishimiz kerak. Bu mashqlar yordamida 1 daqiqada 150–200 tagacha belgini terish ko’nikmasini hosil qilish mumkin.



### FOYDALI MASLAHATLAR



1. Barcha barmoqlar quyida keltirilgan holatda turishi va tugmachalar rangiga mos harakat qilishi lozim.
  2. Avval biror matn yoki uning parchasini klaviaturaga qarab turib, qayta-qayta terishga harakat qiling. Bunda qanchalik ko'p mashq qilsangiz, klaviaturadagi harflar joylashuvini shunchalik tez eslab qolasiz. Ko'nikma hosil qilgach, ko'zlarni monitordan uzmay harf terishga o'ting.
  - O'ng qo'l.** Bosh barmoq "probel" ustida, ko'rsatkich barmoq «j», o'rta barmoq «k», nomsiz barmoq «l» harflari, jimjiloq esa «;» belgisi ustida turishi kerak.
  - Chap qo'l.** Bosh barmoq "probel" ustida, ko'rsatkich barmoq «f» harfi, o'rta barmoq «d», nomsiz barmoq «s», jimjiloq esa «a» harfi ustida turishi kerak.
  3. Barmoqlarni shu holatda turishga o'rgatish va boshqa harflarni tergandan keyin yana "asdf – jkl;" holatga qaytish.
  4. Matn terganda harflarning joylashish o'rnini ko'z oldingizga keltiring.
  5. Avval sekin, bir maromda harflar ustiga bosing va bu mashqni barmoqlar o'rgangunga qadar takrorlang.
  6. Matn terganda barmoqlarni ko'tarmasdan, tugmachalar ustida sirpantirib harakatlantiring.
- Yuqorida mashqlarni klaviatura trenajyorining barcha bosqichlaridan o'tib, MS Word yoki Bloknot dasturlarida bajaring.

### AMALIY MASHG'ULOTLAR



1. "Smart texnologiyalar" mavzusida elektron diktant yozish.
2. Ko'zlarni boylag'ich bilan berkitib, so'zlar ketma-ketligini yozish.
3. Yordamchi klaviaturadan foydalanib, sonlar ketma-ketligini hamda arifmetik amallarni yozish. Masalan:  
567, 909, 1002, 454, 820, 34781, 10926, 277+55=...
4. "Kim chaqqon?" mavzusida marafon o'tkazish. MS Word yoki Bloknot dasturida kim eng ko'p sinfdoshlar ismini yozish (Sharti: ism qaysi harfga tugallansa, keyingi ism shu harfdan boshlanishi lozim).

Masalan: Anvar – Rashid – Dilmurod ...